Iqtibos so'zi haqida

Iqtibos — bu biror muallif tomonidan aytilgan fikrdan yoki shu fikr bayon qilingan matndan so‘zma-so‘z olingan parcha. Odatda shaxsiy fikrni tasdiqlash yoki muayyan bir fikrni inkor etish uchun iqtibosdan foydalaniladi.

Iqtibos doim o‘z o‘rnida qo‘llanishi va aniq bo‘lishi lozim:

— o‘z o‘rnida ishlatilgan iqtibos bayon qiluvchining fikrlarini mustahkamlashga va uning ishonchli bo‘lishiga xizmat qiladi;

— aniq iqtibos aslicha bayon qilinadi va muallifning fikrlarini hech qanday o‘zgartirishlarsiz to‘g‘ri ifoda etadi, ya’ni muallif nima demoqchi bo‘lgan bo‘lsa, iqtibos olgan ham xuddi shu fikrni ifodalash uchun undan foydalanadi.

Iqtibos olishning ham qoidalari bor. Shaxsiy maqsadlari yo‘lida fikrni atay to‘liq olmaslik, kontekstdan sug‘urib olish, fikrni makon, zamon va vaziyatni inobatga olmagan holda talqin qilish mantiqqa ham, madaniyatga ham to‘g‘ri kelmaydi.

Falon kishi falon narsa deganini bilib, uning nima uchun unday deganini bilmay shoshqaloqlik qilish va xulosalar chiqarish yaramaydi. Bu qoida barcha sohalarga birdek amal qiladi.